O'zbekiston Respublikasi 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son¹ Qonunining 7-moddasida "aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir" [1], deb tavsif berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" deb nomlangan asarida "birinchi – islohotlarning qay darajada samara berayotganini ko'rsatadigan maqsadli dasturlarni amalga oshirish natijadorligi. Bular qatorida sanoat va boshqa tarmoqlarni rivojlantirishning quyidagi iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini keltirish mumkin: ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlarni va tannarxni pasaytirish, mahalliyashtirish va rentabellik darajasi, mahsulot raqobatdoshligini so'zsiz oshirish" [2], deb qayd etganlar.

Bundan ko'rinib turibdiki, buxgalteriya hisobotlarida aks ettiriladigan ishlab chiqarish quvvatlarining ahvoli, xarajatlar va tannarx, mahalliyashtirish va rentabellik darajasi kabi ko'rsatkichlar bugungi kunda o'ta muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu masalalar boshqaruv hisobining asosiy obyektlari hisoblanadi.

Belgilangan ustuvor vazifalarni hal qilish maqsadida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) to'liq va tizimli joriy etish hamda bu borada kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha

1 O'zbekiston Respublikasi 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son Qonuni: <https://lex.uz/uz/docs/-2931253>



qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son² qarori [3] qabul qilindi. Ushbu qarorning maqsadi mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun investitsion muhitni yaxshilash, kompaniyalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlarni zarur axborotlar bilan ta'minlash, hisobotlarning mazmuni va tarkibini axborot foydalanuvchilarning ehtiyojlariga uyg'unlashtirish hamda boshqa bir qator vazifalarni amalga oshirishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soha doirasidagi iqtisodiy adabiyotlarda xarajatlar, ishlab chiqarish xarajatlari, ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar hamda tannarx tushunchalari keng qo'llaniladi.

Umumiy iqtisodiy ma'noda ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi tushunchalariga taniqli iqtisodchi olim Sh. Shodmonov tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: "ishlab chiqarish xarajatlari – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish maqsadlarida iqtisodiy resurslarni sotib olish uchun qilgan pul sarflaridir. Firma o'z faoliyatini bozordan moddiy resurslar, ya'ni asbob-uskunalar, dastgohlar, transport va aloqa vositalari, xomashyo, yoqilg'i, turli materiallar hamda mehnat bozorida ish kuchini sotib olishdan boshlaydi. Shunga muvofiq ravishda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yoqilg'i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarish xarajatlari qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi" [4].

M. Boltaboyeva "tannarx, mahsulot tannarxi – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, shuningdek ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun qilgan jami joriy xarajatlarning pul shaklidagi ifodasidir. Tovar ishlab chiqarishda tannarxning muhim elementlari – chetdan olinadigan xomashyo, asosiy materiallar, elektr energiyasi resurslari chiqimlari; asosiy va qo'shimcha ish haqi; ijtimoiy sug'urta ajratmalari; amortizatsiya ajratmalari va boshqa sarf-xarajatlar" [5], deb ta'rif beradi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida "soliq to'lovchi tomonidan O'zbekiston Respublikasida ham, uning hududidan tashqarida ham hisobot (soliq) davri davomida amalga oshirilgan, asoslangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan chiqimlar xarajatlar deb e'tirof etiladi" [6], deb belgilangan.

T. Malikov esa quyidagi fikrlarni bildiradi: "foyda olish yoki xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa maqsadlariga erishish uchun foydalaniladigan resurslarning pul qiymati xo'jalik yurituvchi subyektning xarajatlari hisoblanadi. 'Xarajatlar' tushunchasi 'tannarx' tushunchasiga nisbatan kengroqdir, chunki tannarx umumiy xarajatlarning faqat bir qismini, ya'ni oddiy takror ishlab chiqarish xarajatlari o'zida aks ettiradi. Mahsulot (ish va xizmat) tannarxi mahsulotni (ish va xizmatni) ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy fondlar, mehnat resurslari hamda ularni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bilan bog'liq boshqa xarajatlarning qiymat bahosidan iboratdir. Amaliyotda 'mahsulotning umumiy tannarxi' va 'mahsulot birligining tannarxi' tushunchalaridan keng foydalaniladi" [7].

N. Abdusalomova "tannarx hisobi – rivojlanayotgan mamlakatlarda buxgalteriya hisobining yangi tendensiyasi" [8], deb baholaydi.

Ushbu tahlillardan xulosa qilish mumkinki, o'rganilayotgan ko'rsatkichlarga umumiy iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv hisobi nuqtayi nazaridan beriladigan ta'riflarni bir-biridan ajratish zarur. Ularni tizimlashtirish ehtiyoji mavjud. Xalqaro tajribada realizatsiya bilan bog'liq xarajatlar mahsulot tannarxiga emas, balki operatsion xarajatlar tarkibiga kiritiladi. Mazkur tahlillardan kelib chiqib, xarajatlar tushunchasi tannarx tushunchasiga nisbatan kengroq ma'noni anglatadi, ya'ni xarajatlar tannarxni ham o'z ichiga oladi, degan fikrga qo'shilgan holda, xarajatlar va tannarx tushunchalariga umumiy iqtisodiy, moliyaviy hisob hamda boshqaruv hisobi maqsadlarida alohida ta'riflar berish lozim, deb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, tanlab kuzatish, mantiqiy fikrlash hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxgalteriya hisobining konseptual asoslarida moliyaviy hisob va hisobot maqsadlari uchun quyidagicha ta'rif keltirilgan: "Xarajatlar – bu hisobot davri davomida aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlar miqdorining ko'payishi ko'rinishida tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talabnoma huquqi egalari foydasiga badal taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lmagan holda xususiy kapitalning kamayishida o'z aksini topadi" [9]. Ushbu ta'rif umum e'tirof etilgan qoidadir.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4746047>

Boshqaruv hisobi xarajatlar tushunchasiga o'zining prinsiplari doirasida yondashadi. Xarajatlar boshqaruv hisobining asosiy obyekti hisoblanadi. Xarajatlar tushunchasi keng tushuncha bo'lib, qaysi faoliyatga oidligi va qachon yuzaga kelganligidan qat'i nazar, hisobga olinadigan xarajatlardir.

Xarajatlar — bu ko'zlangan maqsadlarga (mahsulot ishlab chiqarish, tovarlar xaridi, xizmatlar ko'rsatish, ishlarni bajarish, loyihalarni amalga oshirish) erishish uchun sarflangan barcha resurslar qiymatining puldagi ifodasidir. Ushbu atama juda ko'p ma'noga ega bo'lib, turli vaziyatlarda turli tipdagi xarajatlar qo'llaniladi. Masalan, ishlab chiqarish korxonalarida mahsulotni ishlab chiqarish va xaridorlarga sotish uchun ko'plab xarajatlar amalga oshiriladi. Bularga material xarajatlari, mehnat haqi xarajatlari, mashina va asbob-uskunalarining amortizatsiya xarajatlari, ta'mirlash xarajatlari, xodimlarni ovqatlantirish va tibbiy xizmat ko'rsatish xarajatlari, elektr energiyasi xarajatlari, mahsulotlarni saqlash, reklama qilish, xaridorlarga yetkazib berish, menejerlarning ish haqi, telefon va internet xarajatlari hamda boshqa xarajatlarni kiritish mumkin. Xarajatlarning turi va miqdori tashkilotning faoliyat xususiyatlari, uning hajmi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Xorijiy tajribada xarajatlar (expenses) korxonaning odatdagi faoliyati (ordinary activities) bilan bog'liq xarajatlar va odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarga (losses) ajratiladi. Ularning tarkibini quyidagi rasmda aks ettirish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Korxonalar xarajatlarning tasnifi


Korxonaning odatdagi faoliyati bilan bog'liq xarajatlar — bu korxonaning odatdagi faoliyat yuritish jarayonida yuzaga kelgan operatsion, moliyaviy va innovatsion ilmiy-tadqiqot faoliyatlari natijasida vujudga kelgan xarajatlardir.

Operatsion faoliyat xarajatlari sotilgan mahsulotlarning tannarxi, sotish xarajatlari, ma'muriy-boshqaruv hamda boshqa operatsion xarajatlar kiradi.

Iqtisodiyotning globalashuvi sharoitida moliyaviy faoliyat zamonaviy kompaniyalar uchun asosiy faoliyat turlaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro standartlarga muvofiq, bunday xarajatlarga moliyaviy aktivlarning chiqib ketishidan ko'rilgan zararlar, moliyaviy aktivlarning qadrsizlanishidan zararlar, moliyaviy aktivlarni qayta tasniflashdan zararlar hamda boshqa moliyaviy xarajatlarni kiritish mumkin.

Korxonaning odatdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlari — bu korxonaning odatdagi faoliyat yuritish jarayonida yuz berishi yoki yuz bermasligi mumkin bo'lgan xarajatlardir. Bularga tabiiy ofatlar tufayli yuzaga kelgan xarajatlar, joriy bo'lmagan aktivlarni tasarruf qilishdan ko'rilgan zararlar, valyuta kurslari o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan zararlarni kiritish mumkin.

Odatdagi faoliyat bilan bog'liq xarajatlar tarkibida operatsion xarajatlar salmoqli ulushni tashkil etadi. Operatsion xarajatlarni ikki guruhga ajratish mumkin (2-rasm).



2-rasm. Operatsion xarajatlar turlari

AQShdagi buxgalteriya hisobi bo'yicha lug'atda "ishlab chiqarish xarajatlari — bu material xarajatlari hamda ushbu materiallarni tayyor mahsulotga aylantirish bilan bog'liq xarajatlar yig'indisidir. Barcha ishlab chiqarish xarajatlari tayyor mahsulot tannarxiga shunday olib borilishi talab etiladiki, bunda kompaniyaning tashqi moliyaviy hisoboti GAAP talablariga muvofiq kelsin" [10], degan ta'rif keltirilgan. Ushbu manbada ishlab chiqarish xarajatlari uchta kategoriya bo'yicha tasniflangan: to'g'ridan-to'g'ri material xarajatlari, to'g'ridan-to'g'ri mehnat xarajatlari hamda ustama ishlab chiqarish xarajatlari.

Ishlab chiqarish xarajatlari — bu mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish xarajatlari hamda ularni qayta ishlash uchun sarflanadigan bevosita mehnat va ustama ishlab chiqarish xarajatlari bo'lib, ushbu xarajatlarning oqilona qo'shilishi natijasida tayyor mahsulot tannarxi yuzaga keladi.

Boshqaruv hisobida korxonalar xarajatlarini, jumladan ishlab chiqarish xarajatlarini qo'shimcha tarzda quyidagi belgilar bo'yicha tasniflash ham muhim ahamiyatga ega. Tan narx elementlari xarajatlarning tabiati (nature), funksiyasi va xulq-atvori (behavior) hamda boshqa bir qator belgilar bo'yicha tasniflanadi (1-jadval).

1-jadval. Korxona xarajatlarining rejalashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va nazorat qilish maqsadlarida tasniflanishi

Tasnifiy belgi	Xarajat guruhi
1. Tannarx elementlari bo'yicha	Material xarajatlari
	Mehnat xarajatlari
	Ustama xarajatlar
2. Tannarx obyektiga olib borilishiga (nature) ko'ra	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) xarajatlar
	Bilvosita (to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan) xarajatlar
3. Tegishliligiga ko'ra	Umumxarajatlar
	Javobgarlik markazlari xarajatlari
	Bir birlik mahsulot (ish, xizmat)ning o'rtacha xarajatlari
4. Tannarx drayveri — ishlab chiqarish hajmi va boshqa omillarning ta'siriga (behavior) ko'ra	O'zgaruvchan xarajatlar
	Yarim o'zgaruvchan xarajatlar
	Doimiy (o'zgarmas) xarajatlar
	Yarim o'zgaruvchan xarajatlar
5. Boshqaruv qarorlariga bog'liqligiga ko'ra	Relevant xarajatlar
	Norelevant xarajatlar
6. Yuz berishining oldini olish mumkinligiga ko'ra	Saqlanishi mumkin bo'lgan xarajatlar
	Saqlanishi mumkin bo'lmagan xarajatlar
7. Nazorat qilinish imkoniyatiga ko'ra	Nazorat qilinadigan xarajatlar
	Nazorat qilish imkoniyati bo'lmagan xarajatlar
8. Me'yorlanishiga ko'ra	Me'yorlashtiriladigan xarajatlar
	Me'yorlashtirilmaydigan xarajatlar
9. Muqobilligiga ko'ra	Muqobil xarajatlar
10. Qaytarilmasligiga ko'ra	Qaytarilmaydigan xarajatlar
11. Differensiallanishiga ko'ra	O'sib boruvchi xarajatlar
	Marjinal xarajatlar


Tayyor mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlarini turli belgilar bo'yicha tasniflash natijalarini quyidagi jadvalda rasmiylashtiramiz (2-jadval).

2-jadval. Ishlab chiqarish xarajatlarining turli belgilar bo'yicha tasniflanishi

Tasnif belgilari	Turlari	Turlarining qisqacha tavsifi
Tannarx obyektlariga olib borish usuli bo'yicha: bevosita va bilvosita xarajatlar	Bevosita	Tannarx obyektiga to'g'ridan-to'g'ri olib boriladigan xarajatlar. Ularga to'g'ridan-to'g'ri material xarajatlari va to'g'ridan-to'g'ri mehnat xarajatlari kiradi.
	Bilvosita	Tannarx obyektiga to'g'ridan-to'g'ri olib borilmaydigan, dastlab jamg'arilib, keyinchalik ma'lum taqsimlash mezonlari asosida tannarx obyektiga olib boriladigan xarajatlar. Bunday xarajatlarga ustama ishlab chiqarish xarajatlari kiradi.
Mahsulot jami hajmi va birligiga nisbatan hisoblanishiga qarab: umumiy va o'rtacha tannarx	Umumiy	Hisobot davrida mahsulotning jami hajmini ishlab chiqarish uchun sarflangan jami ishlab chiqarish xarajatlari.
	O'rtacha	Jami ishlab chiqarish xarajatlarining hisobot davrida ishlab chiqarilgan jami tayyor mahsulotlarning ekvivalent birligiga nisbati. Mahsulot birligi tannarxi material xarajatlari va qayta ishlash xarajatlari moddalar bo'yicha alohida hisoblanishi mumkin. Alohida elementlar bo'yicha hisoblangan mahsulot birligi tannarxi jami birlik tannarxini shakllantiradi.
Ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmiga (faollik darajasiga) bog'liqligiga qarab: o'zgaruvchan, doimiy, yarim o'zgaruvchan va yarim doimiy xarajatlar	O'zgaruvchan xarajatlar	Mahsulot hajmi (faoliyat darajasi)ga to'g'ridan-to'g'ri mutanosib (proporsional) ravishda o'zgaradigan xarajatlardir. Ularga ishlab chiqarish material xarajatlari, ishbay mehnat haqi, sarflangan energiya (yoqilg'i, elektr energiyasi) xarajatlari misol bo'la oladi.
	Doimiy xarajatlar	Doimiy xarajatlar o'rganilayotgan davrda mahsulot hajmi (faoliyat darajasi)ning ma'lum keng diapazonida miqdor jihatidan o'zgarmas holda saqlanib qoladi. Ushbu xarajatlarga amortizatsiya xarajatlari, nazoratchilar va ustalar ish haqi, ijara to'lovlari kiradi.
	Yarim o'zgaruvchan xarajatlar	Yarim o'zgaruvchan xarajatlar tarkibida o'zgaruvchan va doimiy komponentlarga ega xarajatlar bo'ladi. Ushbu xarajatlarga asbob-uskunalar xizmat ko'rsatish xarajatlarini misol qilib keltirish mumkin.
	Yarim doimiy xarajatlar	Doimiy xarajatlar ishlab chiqarishning ma'lum bir relevanti diapazonida doimiy hisoblanadi. Relevanti diapazon tannarx drayverining ma'lum oralig'i bo'lib, unda tannarx bilan mahsulot hajmi (faoliyat darajasi) o'rtasidagi o'ziga xos bog'liqlik namoyon bo'ladi.
Qabul qilinayotgan qarorlarga bog'liqligiga qarab	Relevant xarajatlar	Qarorlar qabul qilinishi natijasida o'zgarib turadigan kelgusi xarajatlar hisoblanadi.
	Norelevant xarajatlar	Qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq bo'lmagan xarajatlardir.
Tashkilotchilik darajasiga bog'liqligiga qarab: saqlanishi mumkin bo'lgan va saqlanishi mumkin bo'lmagan xarajatlar	Saqlanishi mumkin bo'lgan xarajatlar	Faoliyatni normal tashkil etish sharoitida oldini olish mumkin bo'lgan xarajatlar. Masalan, jarima va penya xarajatlari, me'yordan ortiqcha amalga oshirilgan xarajatlar.
	Saqlanishi mumkin bo'lmagan xarajatlar	Har qanday holatda yuz berishi muqarrar bo'lgan xarajatlar. Masalan, tovarlarning me'yor doirasidagi kamayishi.
Nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan xarajatlar	Barcha xarajatlar muayyan boshqaruv darajasida nazorat qilinadi. Javobgarlik markazlari bo'yicha xarajatlar to'g'risida hisobotlar tayyorlanayotganda, quyi boshqaruv pog'onalarida xarajatlar nazorat qilinadigan va nazorat qilinmaydigan xarajatlarga ajratiladi.	

Ushbu tasniflash asosida xulosa qilish mumkinki, xarajatlarni muayyan belgilar asosida tasniflash ularning hisobini to'g'ri tashkil etish, boshqaruv qarorlari uchun zarur axborotni shakllantirish hamda xarajatlar ustidan samarali nazoratni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Takliflarning amaliyotda qo'llanilishi ishlab chiqarish korxonalarida tannarx hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish, tannarxni optimallashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda tannarx hisobi va hisobotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini tannarx obyektlariga olib borish usuliga qarab, ular bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va bilvosita (to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan) ishlab chiqarish xarajatlariga bo'linadi (3-rasm).



3-rasm. Tayyor mahsulotlar tannarxi elementlari

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) xarajatlar — bu aniq tannarx obyektiga iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri olib borish mumkin bo'lgan xarajatlardir. Masalan, avtomobil ishlab chiqarishda avtomashinaning kuzovi, motori va boshqa ehtiyot qismlari, shuningdek, shu turdagi avtomobillarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi ishlab chiqarish ishchilarining mehnat haqi xarajatlari bevosita xarajatlarga kiradi. Ushbu xarajatlarni qaysi avtomobilni ishlab chiqarishda sarflanganligiga qarab to'g'ridan-to'g'ri mahsulot tannarxiga identifikatsiyalash mumkin. Ayrim adabiyotlarda ushbu xarajatlar to'g'ri xarajatlar deb ham tavsiflanadi.

Bilvosita (to'g'ridan-to'g'ri bo'lmagan) xarajatlar — bu aniq tannarx obyektiga iqtisodiy mohiyatiga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri olib borish mumkin bo'lmagan, dastlab jamg'ariladigan (akkumulyatsiyalanadigan), so'ngra mahsulot tannarxiga ma'lum asoslangan mezonlar asosida taqsimlanadigan xarajatlardir. Masalan, avtomobil ishlab chiqarish sifatini nazorat qilish bo'yicha inspektorning mehnat haqi xarajatlari bitta avtomobilning tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri olib borib bo'lmaydi, chunki ushbu xodimning mehnati bir nechta turdagi avtomobillarning sifatini nazorat qilish bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli, uning mehnat haqini har bir avtomobil turining sifatini nazorat qilishda sarflangan mehnat soatlariga mutanosib ravishda taqsimlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari amalga oshirish natijasida mahsulot tannarxi shakllanadi. Demak, ishlab chiqarish xarajatlari tayyor mahsulotlar qiymatida o'z ifodasini topishi tayyor mahsulot tannarxi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Mahsulot (ish va xizmatlar) tannarxi deganda, ishlab chiqarish zahiralari qayta ishlash jarayonida foydalanilgan va tayyor mahsulotlar qiymatiga olib boriladigan, shuningdek xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarish jarayonida ularning qiymatiga qo'shiladigan bevosita va bilvosita ishlab chiqarish xarajatlari tushuniladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari moddalari tannarxda ifodalanishi tayyor mahsulotlar tannarxi elementlari deb ataladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, tayyor mahsulot tannarxi uchta tannarx elementi yig'indisidan iborat: to'g'ridan-to'g'ri material xarajatlari (bevosita), to'g'ridan-to'g'ri mehnat xarajatlari (bevosita) hamda ustama ishlab chiqarish xarajatlari (bilvosita).

Korxona xarajatlari moliyaviy hisobni yuritish va hisobotni tuzishda qo'llaniladigan tasnifiy jihatlar ularni rejalashtirish va nazorat qilish, shuningdek, ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yetarli emas. Shu sababli korxona xarajatlari to'g'risida batafsil va ishonchli axborotlarni shakllantirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, xalqaro standartlar mahsulot tannarxini zaxiralar tannarxining shakllanishi nuqtayi nazaridan yoritadi. Chunki ishlab chiqarishga zaxira kiritilishidan oldin uning tannarxi shakllanadi (xarid va boshqa xarajatlar), so'ngra u qayta ishlovdan o'tkaziladi. Qayta ishlash jarayonida mehnat va ustama ishlab chiqarish xarajatlari amalga oshiriladi. Natijada ishlab chiqarishga jalb qilingan zaxira tayyor mahsulotga aylanadi. Tayyor mahsulotni joriy holatga keltirish va belgilangan joyiga yetkazish bilan bog'liq xarajatlar ham amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlar natijasida mahsulot tannarxi shakllanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida faoliyat yuritayotgan har qanday kichik va yirik biznes korxonasining faoliyat samaradorligi hamda istiqboli boshqaruv hisobining muhim va asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan "xarajat–ishlab chiqarish hajmi–foyda" ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik orqali ifodalanishi mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar orasida xarajatlar boshqaruv hisobini tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Boshqaruvni samarali amalga oshirish uchun menejerlarga faqat umumiy xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar yetarli bo'lmay, balki amalga oshirilgan xarajatlar bo'yicha batafsil va tahliliy axborotlar ham zarur bo'ladi.



Xulosa qilib aytganda, xarajatlar tushunchasi tannarx tushunchasiga nisbatan kengroq hisoblanadi. Xarajatlar korxonaning o'z maqsadlariga erishish va oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish jarayonida amalga oshirilgan barcha sarf va chiqimlarning puldagi ifodasidir. Tannarx esa mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish jarayonida mahsulot qiymatini yaratish bilan bevosita bog'liq bo'lgan xarajatlardan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-404-sonli Qonuni: <https://lex.uz/acts/2931253>
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. — Toshkent: "O'zbekiston", 2017. — 26 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/4746047>
4. Ishlab chiqarish xarajatlari. Qomus ensiklopediyasi. <https://gomus.info/encyclopedia/cat-i/ishlab-chiqarish-xarajatlari-uz/>
5. Tannarx. Qomus ensiklopediyasi. <https://gomus.info/encyclopedia/cat-t/tannarx-uz/>
6. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2019-12-31, 02/19/SK/4256. <https://www.lex.uz/docs/4674902>
7. Malikov Tohir. Ma'ruza matni. <http://staff.tiiame.uz/storage/users/58/presentations/gwPvgkOTiEssldkJLvN1YAFIZ1IEwWu325r4qPNO.pdf>
8. Abdusalomova, Nodira. Cost Accounting and Financial Health: Analysis of Cost Reduction Policy Effect in Selected Enterprises of Metallurgy Industry in Uzbekistan. International Journal of Management Science and Business Administration, Inovatus Services Ltd., vol. 3, no. 3, pp. 33–38, 2017-03.
9. Фомина О.Б. Изменение концептуальных основ МСФО. Электронный научно-практический журнал «ИнноЦентр», № 4(25), 2019-12. © Тверской ИнноЦентр, 2019. [http://innoj.tversu.ru/Vipusk4\(25\)2019/pdf](http://innoj.tversu.ru/Vipusk4(25)2019/pdf)
10. What are manufacturing costs? AccountingCoach. <https://www.accountingcoach.com/blog/what-are-manufacturing-costs>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100